O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK 338.48:33M:334.75

NURULLAYEVA MALIKA SAMADJON QIZI

XALQARO TURIZM BIZNESINING RIVOJLANISHI

71010401 – «Turizm»(faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof . A. Eshtayev

Toshkent – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar _____ **i.f.d., prof . A. Eshtayev**

Kafedra mudiri _____ **i.f.d., prof . A. Eshtayev**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani _____ **i.f.d., prof. J.Karimqulov**

Men, Nurullayeva Malika Samadjan qizi
(F.I.Sh.)

ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

_____ ____ _____ ____
(talabaning imzosi) *(kun)* *(oy)* *(yil)*

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
"TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI" KAFEDRASINING
№ 34 BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA

"18" aprel 2025 yil **Toshkent shahri**

Raislik qiluvchi: kafedrasi mudiri, i.f.d., prof. A. Eshtayev

Qatnashganlar: Kafedra professori A. Abduvohidov, professor A. Norchayev, proffessor M. Aliyeva, professor S.Safayeva, professor D. Abidova, PhD M.Nurfayziyeva, PhD D.Umirova, PhD N. Jo'rayeva, katta o'qituvchi D. Raximova, katta o'qituvchi M.Mo'xanov, katta.o'qituvchi N. Oppoqxonov, katta o'qituvchi A. Baxromov, katta o'qituvchi B. Xoshimov, katta o'qituvchi F. Halimova, katta o'qituvchi H. Egamnazarov assistent N.Rasulova, katta o'qituvchi M. Xushnazarova (kotiba)

KUN TARTIBI:

"Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrasi 71010401-Turizm (faoliyat turlari bo'yicha), 71010403- Turizm (Ziyorat turizmi) mutaxassisligi 2- kurs MTXT-01, MTXT-21 va MTZ-01 guruh talabalarining dastlabki himoyalari muhokamasi

---

(A. Eshtayev)

Ushbu masala yuzasidan kafedra mudiri professor A. Eshtayev so'zga chiqib, jumladan, MTXT-01, MTXT-21 va MTZ-01 guruh talabalarining dastlabki himoyalari grafigiga asosan 2025-yil 9-apreldan 17-aprelgacha quyidagi talabalarning magistrlik dissertatsiyalari dastlabki himoyasi rejalashtirilganligi to'g'risida axborot berib o'tdi. Shuningdek, dastlabki himoya natijalariga ko'ra komissiya a'zolari tomonidan ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni yakuniy himoyagacha tezkorlik bilan bartaraf etishlari lozimligi ta'kidlandi:

1. MTZ-01 guruh talabasi Zaripov Toxirjon "Ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish yo'llari" mavzusidagi magistrlik dissertasiyasi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yaxti yaxshi yoritilmagan. Ikkinchi bobda kamchiliklar mavjud va boblar oxirida xulosalarda kamchiliklar mavjud.

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi zamonaviy global iqtisodiyotning eng dinamik va daromadli sohalaridan biri bo'lgan xalqaro turizm biznesi rivojlanishining asoslari, undagi tendensiyalar, ko'rsatkichlar va uning O'zbekistonda rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida jahonda turizm bozorining analizi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi; davlatlarda turizm sohasining boshqaruv strukturasi va uslublari ko'rib chiqildi; O'zbekistonning turizmi rivojlanishi ko'rsatkichlari va hozirgi holati analiz qilindi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida O'zbekiston turizmi biznesining rivojlanish istiqbollari aniqlanib, xizmatlar sifatini oshirish, virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt (AI)ning turizm sanoatiga ta'siri tahlil qilinib, ularning sayyohlik tajribasini shaxsiylashtirish, qaror qabul qilishni soddalashtirish hamda VR ning madaniy meroslarni tiklashda tutgan o'rni va barqarorlikni oshirishdagi roli ilmiy asosida yoritildi.

ANNOTATION

The master's dissertation examines the foundations of the development of the international tourism business, which is one of the most dynamic and profitable areas of the modern global economy, its trends, indicators and development opportunities in Uzbekistan. The study analyzed the analysis and economic performance of the global tourism market; the structure and methods of tourism management in states are considered; the indicators and the current state of tourism development in Uzbekistan were analyzed. As a scientific innovation of the study, the prospects for the development of the tourism business of Uzbekistan were determined, the impact of virtual reality (VR) and artificial intelligence (AI) on the tourism industry was analyzed, it was determined that AI plays an important role in personalizing the tourism experience, simplifying decision-making process and VR was idetified as beneficial in restoring destructed cultural heritage sites.

MUNDARIJA

	KIRISH	**3**
I BOB	**XALQARO TURIZM BIZNESINING NAZARIY ASOSLARI**	**9**
1.1.	Turizmning tushunchasining mazmun-mohiyati va uning tarixiy taraqqiyoti tavsifi	9
1.2.	Xalqaro turizm tushunchasining asosiy kategoriyalari	17
	I bob bo'yicha xulosa	33
II BOB	**XALQARO TURIZM BIZNESINING DAVLATLAR IQTISODYOTIDAGI SALMOG'INING IQTISODIY TAHLILI**	**35**
2.1.	Xalqaro turizm bozorida mamlakatning o'rnini belgilovchi omillar va ko'rsatkichlar	35
2.2.	Xalqaro hamda milliy-davlat darajasida turizmni boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	47
2.3	O'zbekistonda turizmning hozirgi holati iqtisodiy tahlili.....	
	II bob bo'yicha xulosa	70
III BOB	**O'ZBEKISTONDA XALQARO TURIZM BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI**	**72**
3.1.	O'zbekistonda turizmning hozirgi holati tahlili natijalaridan olingan muammolar uchun takliflar.....	72
3.2.	O'zbekistonda xalqaro turizm biznesining rivojlanish tendensiyalari	79
	III bob bo'yicha xulosa	92
	XULOSA	**93**
	FOYDALANILGAN ABIYOTLAR	**96**
	ILOVALAR.....	

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Xalqaro turizm biznesi zamonaviy global iqtisodiyotning eng dinamik va daromadli sohalaridan biridir. Turizm tarmog'i nafaqat mamlakatlar o'rtasida madaniy, ijtimoiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar hayotning barcha jabhalarida o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq hayotga tatbiq etilgan va bugungi kungacha izchillik bilan amalga oshirib kelinayotgan bu islohotlarning pirovard natijasi sifatida mamlakatimizda kovid pandemiyasi xavfiga qaramasdan barqaror iqtisodiy o'sishga erishilayotganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Hozirgi kunda dunyodagi juda ko'plab rivojlangan davlatlar YIM da xizmatlar sohasining ulushi ancha yuqori ko'rsatgichga ega va shu bilan birga turizm xizmatlari orqali olinayotgan daromadlar ham yuqori. Xizmat ko'rsatish va servis sohasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu turizmdir.

O'tgan qisqa davr mobaynida O'zbekiston turizm salohiyatini kompleks rivojlantirishga qaratilgan 16 normativ huquqiy hujjat qabul qilindi. Ushbu hujjatlat asosida turizm sohasi subyektlariga sezilarli soliq va bojxona imtiyozlari hamda boshqa imtiyozlari hamda boshqa yengilliklar taqdim etildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilda «turizmda ko'rsatilgan xizmatlar global yalpi ichki mahsulotning 10,3 % ni tashkil etib, 8,9 trln. AQSH dollariga yetgan, shuningdek sohada bevosita va bilvosita 330 mln. kishi band bo'lib, 10 ish o'rnidan bittasi turizmga tegishli»[1]. Shu bois ko'p mamlakatlarda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish jadal sur'atlar bilan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

Dunyoda koronavirus pandemiyasi salbiy ta'siri ostida shakllangan va tasodiflarga to'la beqaror zamonaviy konyunkturasi tarmoq iqtisodiyotiga davlat aralashuvini bugungi sharoitga mos tarzda yangi mazmun bilan boyitishni talab

[1] Internet ma`lumotlari.https://www.unwto.org/